



TRANSFORMATION OF PERSONAL CONSCIOUSNESS IN THE CONDITIONS OF DIGITAL SOCIETY: PHILOSOPHICAL APPROACHES

Zafar Saydullayevich Botirov

Teacher of the Department of "Social Sciences", (PhD)

Alfraganus University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: digital society, individual consciousness, consciousness transformation, philosophical analysis, digital technologies, virtual space, social consciousness, identity, technological determinism.

Received: 24.01.26

Accepted: 25.01.26

Published: 26.01.26

Abstract: The article analyzes the transformation of individual consciousness in the context of a digital society from a socio-philosophical perspective. The influence of digital technologies and virtual space on personal thinking, perception, and worldview is revealed. Technological determinism, postmodernism, and constructivist approaches are applied as methodological foundations in the research process. Issues such as the fragmentation of individual consciousness, changes in consciousness under the influence of information flows, and the reshaping of social identity in the digital environment are examined.

RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA SHAXS ONGINING TRANSFORMATSIYASI: FALSAFIY YONDASHUVLAR

Zafar Saydullayevich Botirov

"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi, (PhD)

Alfraganus universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: raqamli jamiyat, shaxs ongi, ong transformatsiyasi, falsafiy tahlil, raqamli texnologiyalar, virtual makon, ijtimoiy ong, identiklik, texnologik determinizm.

Annotatsiy: Maqolada raqamli jamiyat sharoitida shaxs ongining transformatsiyasi ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar va virtual makonning shaxs tafakkuri, idroki hamda dunyoqarashiga ta'siri ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida texnologik determinizm, postmodernizm va konstruktivistik

yondashuvlar metodologik asos sifatida qo'llanadi. Shaxs ongining fragmentatsiyalashuvi, axborot oqimlari ta'sirida ongning o'zgarishi hamda raqamli muhitda ijtimoiy identiklikning qayta shakllanishi masalalari tahlil qilinadi.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ЛИЧНОГО СОЗНАНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОГО ОБЩЕСТВА: ФИЛОСОФСКИЕ ПОДХОДЫ

Зафар Сайдуллаевич Ботиров

Преподаватель кафедры «Социальные науки», (PhD)

Университет Альфрагануса

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	цифровое общество, сознание личности, трансформация сознания, философский анализ, цифровые технологии, виртуальное пространство, социальное сознание, идентичность, технологический детерминизм.	Аннотация:	В статье анализируется трансформация сознания личности в условиях цифрового общества с социо-философской точки зрения. Рассматривается влияние цифровых технологий и виртуального пространства на мышление, восприятие и мировоззрение личности. В качестве методологической основы в исследовании применяются технологический детерминизм, постмодернизм и конструктивистские подходы. Рассматриваются такие вопросы, как фрагментация сознания личности, изменения сознания под воздействием информационных потоков и формирование социальной идентичности в цифровой среде.
------------------------	--	-------------------	--

Kirish. Zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida shaxsning shakllanishi va o'zini anglash jarayonlari tubdan o'zgarib bormoqda. Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va virtual platformalar inson hayotining ajralmas qismiga aylanar ekan, ular shaxs ongining rivojlanishiga, dunyoqarashi va identikligining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli muhitda erkin axborot oqimi, doimiy onlayn aloqadorlik va virtual muloqot imkoniyatlari shaxs ongining yangi shakllarini vujudga keltirmoqda. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, bunday sharoit, ayniqsa, yoshlar ongining rivojlanishi uchun misli ko'rilmagan ijtimoiy-madaniy makonni yaratmoqda. Bugungi globallashtgan dunyoda deyarli har bir inson internet orqali ijtimoiy hayotda faol ishtirok etadi. Jahon miqyosida milliardlab odamlar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib, virtual makonda o'z "men"ini namoyon etmoqda. Facebook, Instagram, Telegram, YouTube kabi platformalarda shaxslar o'z profili, avatar va onlayn obro'si orqali raqamli identiklikni shakllantiradi. Ushbu jarayon shaxsning ichki dunyosi, o'zini baholashi va o'z-o'zini anglashiga

sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, raqamli muhit shaxsga o'zini erkin ifoda etish imkonini beradimi yoki aksincha, ijtimoiy me'yorlar va virtual andozalar asosida sun'iy qiyofalarni yaratishga majbur qiladimi, degan savol dolzarbligicha qolmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va virtual hamjamiyatlarda shakllanayotgan kommunikatsion muhit shaxsning raqamli identifikatsiyasini yuzaga keltiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi va nazariy asoslar. Raqamli jamiyat sharoitida shaxs ongining transformatsiyasi masalasi zamonaviy falsafiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Bu jarayonda "raqamli identiklik" tushunchasi markaziy o'rin egallaydi. Raqamli identiklik – bu shaxsning virtual makondagi mavjudligi, o'zini namoyon etish shakllari, boshqalar tomonidan qabul qilinishi hamda o'z-o'zini anglashining yangi ko'rinishidir. An'anaviy jamiyatda identiklik asosan barqaror ijtimoiy omillar – kasb, ijtimoiy mavqe, millat, jins, oilaviy rol kabi mezonlar orqali shakllangan bo'lsa, raqamli jamiyatda bu holat tubdan o'zgarib, ko'p qatlamli va dinamik xarakter kasb etmoqda. "Zamonaviy raqamli makon shaxsga bir vaqtning o'zida turli virtual maydonlarda faoliyat yuritish imkonini beradi"[1]. Masalan, professional tarmoqlarda (LinkedIn) shaxs o'zini mas'uliyatli va rasmiy mutaxassis sifatida namoyon etsa, ijtimoiy tarmoqlarda (Facebook, Instagram) kundalik hayotiga yaqinroq, emotsional qiyofani taqdim etadi, anonim platformalarda esa ijtimoiy me'yorlardan nisbatan holi bo'lgan butunlay boshqa obrazni shakllantirishi mumkin. Bu holat shaxs ongining moslashuvchanligi va ko'p qirraliligidan dalolat beradi. "Amerikalik olim Sherri Turkil tomonidan ilgari surilgan "ko'p qirrali men" (multiple self) konsepsiyasi mazkur jarayonni falsafiy jihatdan izohlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi"[2]. Uning fikricha, raqamli texnologiyalar insonni yagona va uzviy identiklik doirasidan chiqarib, bir nechta virtual rollarni sinab ko'rishga undaydi. Zamonaviy inson bir vaqtning o'zida Zoom platformasida professional mutaxassis, blog muhitida ijodkor yoki tanqidchi, onlayn o'yinlarda esa boshqa taxallus ostidagi virtual qahramon sifatida mavjud bo'lishi mumkin. Har bir rol shaxs ongining alohida jihatini aks ettirib, uning ichki tajribasini boyitadi. Mazkur holat falsafadagi an'anaviy "yaxlitlik" (oneness) va subyektning barqarorligi haqidagi qarashlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Agar ilgari "men kimman?" degan savolga javob sifatida shaxs o'zini uzviy va barqaror mavjudot sifatida anglagan bo'lsa, raqamli jamiyatda bu "men" vaziyatga, platformaga va muloqot kontekstiga qarab o'zgaruvchan bo'lib bormoqda. Bu esa shaxs ongining fragmentatsiyalashuvi, ya'ni bo'laklarga ajralishi ehtimolini yuzaga chiqaradi.

"Raqamli muhit shaxs erkinligini kengaytiruvchi omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Virtual makon orqali inson real hayotda cheklangan imkoniyatlarni yengib o'tishi, o'z salohiyatini yangi shakllarda ro'yobga chiqarishi mumkin"[3]. Masalan, jismoniy imkoniyati

cheklangan shaxslar internet orqali faol ijtimoiy va madaniy hayotda ishtirok etib, o'zligini to'liqroq namoyon etish imkoniga ega bo'ladi. Biroq bu jarayon nazoratsiz kechsa, shaxs ongida ichki ziddiyatlar kuchayib, identiklik inqiroziga olib kelishi mumkin. Raqamli jamiyat sharoitida shaxs ongining transformatsiyasi murakkab va ziddiyatli jarayon bo'lib, u bir tomondan insonning o'zini anglash imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan identiklikning parchalanganligi va ichki yaxlitlikning yo'qolishi xavfini yuzaga keltiradi. Mazkur tadqiqotda aynan shu jarayonlar falsafiy yondashuvlar asosida tahlil qilinib, raqamli makon va inson ongining o'zaro ta'siri chuqurroq o'rganiladi.

Raqamli jamiyat shakllanishi bilan shaxs identikligining ontologik va gnoseologik asoslari tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda. Ilmiy diskursda raqamli identiklik masalasi shaxs ongining ijtimoiy-texnologik muhit bilan o'zaro aloqasi mahsuli sifatida talqin etilib, u an'anaviy identiklik modellari bilan uzviy ziddiyatda namoyon bo'lmoqda. Sotsiologik-falsafiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, raqamli makon shaxsning o'zini namoyon etish (self-presentation) strategiyalarini ratsional ravishda loyihalash imkonini beradi. "Ijtimoiy tarmoqlarda individ ko'pincha o'z "men"ining normativ va ijtimoiy maqbullashtirilgan versiyasini taqdim etib, mavjudlikning idealizatsiyalangan modelini konstruksiya qiladi"[4]. Mazkur jarayonni ijtimoiy falsafa nuqtayi nazaridan talqin etishda dramaturgik paradigma muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu paradigma doirasida ijtimoiy voqelik performativ xarakterga ega bo'lib, shaxs o'z mavjudligini doimiy ravishda "ijro etish" orqali tasdiqlaydi. Raqamli platformalar esa bu performativlikni kuchaytiruvchi simulyativ makonga aylanadi. Bu holat shaxs identikligining avtentikligi masalasini keskinlashtirib, "haqiqiy men" va "namoyish etilayotgan men" o'rtasidagi ontologik tafovutni yuzaga chiqaradi.

Psixologik-falsafiy tadqiqotlar doirasida raqamli identiklik subyektiv ong va o'zini qadrlash mexanizmlari bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Raqamli muhitda ijtimoiy tan olinishi tashqi belgilar – reytinglar, baholar va algoritmik ko'rsatkichlar orqali o'lchanadi [5]. Ushbu kvantifikatsiyalangan e'tirof shakllari shaxs ongida ekzistensial qaramlik holatini vujudga keltirishi mumkin. Virtual makonda yetarli darajada e'tirof etilmaslik subyektning o'zini anglash jarayonida ichki ziddiyatlar, begonalashuv va ekzistensial bo'shliq hissini kuchaytiradi. Shu ma'noda, raqamli identiklik zamonaviy inson ongida yangi psixologik va ma'naviy xavf-xatarlar manbai sifatida namoyon bo'ladi. Biroq raqamli identiklikni faqat salbiy fenomen sifatida baholash biryoqlama yondashuv bo'lar edi. Falsafiy tahlil shuni ko'rsatadiki, raqamli makon subyekt uchun yangi ijtimoiy-ekzistensial imkoniyatlar ham yaratadi. Marginal holatdagi shaxslar, kam sonli ijtimoiy guruhlar yoki an'anaviy jamiyatda o'z ovozigacha ega bo'la olmagan individlar virtual muhit orqali o'z mavjudligini legitimlashtirish imkoniga ega bo'lmoqda.

Bunday holatda raqamli identiklik shaxsning o'zini ijtimoiy borliq ichida qayta joylashtirishiga xizmat qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Raqamli jamiyat sharoitida shaxs ongining transformatsiyasini chuqurroq tushunish uchun klassik va postmodern falsafiy nazariyalarni integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Hegelning subyektiv ong va o'z-o'zini anglash konsepsiyasiga binoan, shaxs o'z identikligini doimiy ravishda boshqa subyektlar bilan o'zaro munosabatda shakllantiradi. Raqamli makonda bu jarayon yanada murakkablashadi: onlayn muloqot va virtual rollar subyektga bir vaqtning o'zida bir nechta "men"ni yaratish imkonini beradi. "Hegelning "O'zlikni tanish orqali rivojlantirish" (Selbstbewusstsein durch Anerkennung) nazariyasi raqamli identiklikni ijtimoiy tan olinishi va e'tirof orqali transformatsiyalanadigan hodisa sifatida talqin qilishga yordam beradi"[5]. Fukoning quvvat va nazorat (power/discipline) konsepsiyasi raqamli identiklikni yangi ijtimoiy konstrukt sifatida tahlil qilishga imkon beradi. Ijtimoiy tarmoqlar algoritmik boshqaruv va "profil qurish" vositalari orqali shaxs ongiga ta'sir o'tkazadi. Fuko nuqtai nazarida, virtual maydon subyektni nazorat qilishning yangi shakli sifatida qaraladi, bu esa shaxsning o'zini "optimallashtirish" va "monitoring" ostida saqlash holatini keltirib chiqaradi. Raqamli identiklik shaxsning o'zini ijtimoiy me'yorlar bilan uyg'unlashtirish jarayonida nazorat va intizom mexanizmlari bilan bevosita bog'liq. Bodriyarning simulyakr va hiperhaqiqat (hyperreality) tushunchalari raqamli identiklikni falsafiy nuqtai nazardan tushuntirish imkonini beradi. Onlayn muhitda shaxslar yaratgan "ideal men" ko'pincha real tajribadan ajralgan, mediatsiyalangan obraz sifatida namoyon bo'ladi. Bu Bodriyar ta'kidlashicha, simulyakr inson ongini haqiqiylikdan uzib, hiperhaqiqatni shakllantiradi: virtual identiklik ko'pincha real hayotdagi shaxsdan ko'ra mukammal va "haqiqiyroq" qiyofada mavjud bo'ladi. Shu bilan raqamli identiklik postmodern subyektning asosiy ontologik muammosiga aylanadi. "Xabermasning kommunikativ harakatchanlik va deliberativ muloqot nazariyasi raqamli identiklikni ijtimoiy konstruksionizm bilan uzviy bog'laydi"[6]. Virtual makon subyektlarga o'z fikrini bildirish, muloqotda qatnashish va ijtimoiy normativlarni qayta konstruksiya qilish imkonini beradi. Shu jihatdan, raqamli identiklik shaxsning o'zligini jamiyat bilan uzviy bog'liq holda anglash jarayoni sifatida ko'riladi: subyekt faqat o'zini emas, balki muloqot kontekstidagi ijtimoiy sharoitlarni ham hisobga oladi. Xabermas nazariyasi raqamli maydonni ijtimoiy dialog va identiklikning legitim qurilishi uchun muhim platforma sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Hegel, Fuko, Bodriyar va Xabermas konsepsiyalari raqamli identiklikni turli falsafiy o'lchamlarda tahlil qilish imkonini beradi: ontologik va ijtimoiy o'zlik (Hegel), quvvat va nazorat (Fuko), simulyakr va hiperhaqiqat (Bodriyar), hamda kommunikativ legitimlik va

muloqot (Xabermas). Ularning nazariyalari birlashganda, raqamli jamiyat sharoitida shaxs ongining ko'p qatlamli va doimiy transformatsiyalanuvchi tabiatini tushunishga keng falsafiy asos yaratadi.

Raqamli identiklikni tushuntirishda ijtimoiy konstruksionizm muhim metodologik asos hisoblanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, identiklik substansional emas, balki diskursiv va jarayonli hodisadir. U doimiy ravishda muloqot, ramzlar va belgilash amaliyotlari orqali qayta ishlab chiqiladi. Raqamli kommunikatsiya shakllari – vizual obrazlar, avatarlar, emoji, algoritmik tavsiyalar – shaxs identikligining semiotik tuzilmasini shakllantiradi. Natijada raqamli til va belgilar tizimi subyekt ongining tashqi proyeksiyasiga aylanib, individuallikning yangi ifoda shakllarini yuzaga keltiradi. Raqamli identiklik fenomeni shaxs ongining transformatsiyasini aks ettiruvchi murakkab falsafiy hodisa bo'lib, u an'anaviy identiklik tushunchalarining ontologik barqarorligini shubha ostiga qo'yadi. Raqamli jamiyat sharoitida shaxs "yagona va yaxlit men"dan ko'ra, ko'p qatlamli, kontekstga bog'liq va doimiy qayta konstruksiya qilinuvchi subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayonni falsafiy jihatdan anglash zamonaviy insonning raqamli borliqdagi mavjudligini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Raqamli jamiyat sharoitida shaxs ongining shakllanishi nafaqat individual identiklik, balki ijtimoiy ong va jamoaviy tafakkur nuqtai nazaridan ham yangi ma'nolar kasb etmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqaladigan trendlar, viral videolar va memlar butun millionlab odamlarning fikrini bir vaqtning o'zida ma'lum yo'nalishga yo'naltira oladi. Masalan, qisqa vaqt ichida keng tarqalgan xabar muayyan masalaga jamoatchilik diqqatini jalb qiladi va foydalanuvchilar shu asosda o'z qarashlarini shakllantiradi. Shu bilan birga, bunday jarayonning xavfli jihati haqiqatning nisbiylashuvi bilan bog'liqdir: ilgari yangiliklar rasmiy manbalar orqali tasdiqlangan bo'lsa, bugungi raqamli muhitda yolg'on yoki manipulyatsiyalangan ma'lumotlar ham tez tarqalib, "post-haqiqat" hodisasini yuzaga keltirmoqda. Natijada shaxslar qaror qabul qilishda subyektiv hissiyot va emotsional reaksiyalarga tayangan holda harakat qiladi, real faktlar esa ikkinchi darajaga tushib qoladi. Tanqidiy fikrlash va media savodxonlikni rivojlantirish zamonaviy inson ongi uchun muhim himoya vositasiga aylanmoqda. Biroq raqamli muhit faqat salbiy ta'sir bilan chegaralanmaydi. U shaxsning ijodkorlik salohiyatini oshirish, fikrlar xilma-xilligini ta'minlash va innovatsion tafakkurni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Masalan, yosh avlod turli onlayn platformalarda video, musiqa, dizayn va boshqa ijodiy kontent yaratib, uni keng auditoriya bilan ulashadi va bir-biridan o'rganadi. Bu jarayon shaxs ongida erkin va noan'anaviy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, hamda insonni global madaniyat va g'oyalar bilan tanishtiradi.

Tadqiqot natijalari. Raqamli identiklik shaxsning psixologik, ijtimoiy va madaniy o'zini anglash tizimida yangi qatlam sifatida shakllanmoqda. Raqamli muhit shaxsga o'z "men"ini virtual makon orqali ifodalash imkoniyatini beradi va bu jarayon real va virtual o'zliklar o'rtasida murakkab o'zaro munosabatlarni yuzaga keltiradi. Birinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda faol ishtirok etish natijasida shaxsning identikligi ko'p qatlamli bo'lib, foydalanuvchi haqiqiy, ideal va texnologik yaratilgan obrazlarini uyg'unlashtiradi. Bu identiklikning fragmentatsiyasi, ya'ni shaxsning turli raqamli rollar orasida bo'linishi jarayonini kuchaytiradi. Ikkinchidan, axborot oqimining tezligi va algoritmik boshqaruv shaxs ongiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt algoritmlari foydalanuvchi haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlab, unga shaxsiylashgan kontent taqdim etadi. Natijada "filtr pufagi" fenomeni yuzaga keladi, bu esa tanqidiy tafakkur va kognitiv mustaqillikning pasayishiga olib keladi. Uchinchidan, raqamli muhitda axloqiy identiklik ham transformatsiyaga uchraydi. Onlayn xatti-harakatlar ko'pincha anonimlik va ijtimoiy mas'uliyatdan uzoqlashish bilan kechadi. Shu bilan birga, raqamli axloqiy madaniyatni rivojlantirish foydalanuvchilarda empatiya, hurmat va mas'uliyat hissini tiklashi mumkinligi aniqlangan.

Raqamli identiklikning sog'lom shakllanishi uchun uch asosiy yo'nalish muhim:

1. Raqamli madaniyatni rivojlantirish – onlayn xulq-atvor me'yorlari va etik standartlarni mustahkamlash;
2. Media savodxonlikni oshirish – axborotni tanqidiy tahlil qilish va ongli munosabatni rivojlantirish;
3. Shaxsiy axborot xavfsizligini ta'minlash – raqamli izni boshqarish va shaxsiy ma'lumotlar ustidan nazoratni mustahkamlash.

Xulosa. Onlayn profil foydalanuvchining virtual identikligini belgilaydi va vaqt o'tishi bilan foydalanuvchi tajribasi va dunyoqarashiga qarab o'zgaradi. Virtual identiklik real hayot identikligini to'ldirishi yoki unga zid bo'lishi mumkin. Ko'pincha foydalanuvchi o'zini idealizatsiya qilib, ijobiy tomonlarini ko'rsatadi va salbiylarini yashiradi, bu esa identiklikning haqqoniyligi masalasini dolzarb qiladi. Raqamli muhit shaxs ongini turlicha axborot bilan boyitadi. Foydalanuvchilar bir kunda yuzlab post, videolar va yangiliklarni qabul qiladi. Axborot oqimini nazorat qiluvchi shaxs yoki tizimlar jamoatchilik ongiga va identikligiga ta'sir ko'rsatadi, bu esa axborot xavfsizligi va ma'naviy tahdid masalasini keltirib chiqaradi. Shaxsning sog'lom raqamli identikligini shakllantirish uchun raqamli madaniyat va savodxonlik muhimdir. Bu ijtimoiy tarmoqlarda muloqot odoblari, kiberxavfsizlik choralari, axborotni tanqidiy tahlil qilish va onlayn-oflayn hayotni muvozanatlashni o'z ichiga oladi. Raqamli identiklikni ongli boshqarish va shaxsiy axloqiy me'yorlarni saqlash XXI asr fuqarosining

muhim belgisi hisoblanadi. Raqamli muhitda ham insoniy fazilatlar – halollik, hurmat va mehr-oqibat – qadrsizlanmasligi lozim, chunki texnologiya qancha rivojlanmasin, uning ortida ong va qalb egasi bo‘lgan inson turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Turkle, S. (2011). Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. Basic Books.
2. boyd, d. (2014). It’s Complicated: The Social Lives of Networked Teens. Yale University Press.
3. Pariser, E. (2011). The Filter Bubble: What the Internet Is Hiding from You. Penguin.
4. Zuboff, S. (2019). The Age of Surveillance Capitalism. PublicAffairs.
5. Floridi, L. (2013). The Ethics of Information. Oxford University Press.
6. Papacharissi, Z. (2010). A Private Sphere: Democracy in a Digital Age. Polity.